ЗАҲИРИДДИН
МУҲАММАД БОБУР
НОМИДАГИ АНДИЖОН
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ANDIJAN STATE
UNIVERSITY NAMED
AFTER ZAKHIRIDDIN
MUKHAMMAD BABUR

ИЛМИЙ ХАБАРНОМА

Серия: Гуманитар тадқиқотлар

SCIENTIFIC BULLETIN

Series: Humanitarian Studies

2020/ №5(49)

Андижон
2020 йил

Муассис:

Zahiriddin Muhammad
Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti

ИЛМИЙ ХАБАРНОМА.
Серия: Гуманитар тадқиқотлар

Журнал бир йилда
8 марта (серия 2 марта)
чоп этилади

Ўзбекистон Республикаси
Президенти Администрацияси
ҳузуридаги Ахборот ва Оммавий
коммуникациялар агентлиги
томонидан 2020 йил
17 августда 1097 рақами билан
рўйхатга олинган

Нашр индекси: 344

Нашр учун масъул:
Д.Неъматова

Журнал фалсафа, тарих,
филология, педагогика, кимё ва
биология фанлари бўйича Олий
аттестация комиссиясининг
диссертациялар натижалари юзасидан
илмий мақолалар эълон қилиниши
лозим бўлган нашрлар рўйхатига
киритилган.

Босишга рухсат этилди: 28.08.2020
Қоғоз бичими: 60x84 $^{1}/_{8}$.
Босма табоғи: 13,5.
Офсет босма. Офсет қоғози.
Адади: 110 дона.
Баҳоси келишилган нархда.
Буюртма №:

«Муҳаррир» нашриёти матбаа
бўлимида чоп этилди.

Тошкент шаҳри,
Сўгалли ота кўчаси 7-уй.

Таҳририят манзили:
170100, Андижон шаҳри, Университет кўчаси, 129.
Телефон: +998911602043. Факс: (374) 223-88-30
E-mail: adu_xabarnoma@mail.ru
Расмий сайт: www.xabarnoma.adu.uz

Таҳрир ҳайъати раиси:
Расулов Бахтиёр Махмуджонович – тарих фанлари доктори (Андижон, Ўзбекистон)

Фалсафа
Саифназаров Исмоил Саифназарович – фалсафа фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)
Иззетова Эмине Мустафаевна – фалсафа фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)
Маҳмудова Гули Тилабовна – фалсафа фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)
Юлдашева Фарида Хужамқуловна – фалсафа фанлари доктори, (Андижон, Ўзбекистон)
Когай Евгения Анатольевна – фалсафа фанлари доктори, профессор (Курск, Россия)
Нуришева Гульжихан Жумабаевна – фалсафа фанлари доктори, профессор (Олмота, Қозоғистон)
Шарипова Эркайим Козуевна – фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўш, Қирғизистон)

Тарих
Шамсутдинов Рустамбек Темирович – тарих фанлари доктори, профессор (Андижон, Ўзбекистон)
Исҳоқов Мирсодиқ Мирсултонович – тарих фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)
Асқаров Аҳмадали Асқарович – тарих фанлари доктори, ЎзР ФА академиги (Тошкент, Ўзбекистон)
Расулов Абдулла Нуритдинович – тарих фанлари доктори, профессор (Наманган, Ўзбекистон)
Амелин Веналий Владимирович – тарих фанлари доктори, профессор (Оренбург, Россия)
Койгелдиев Мамбет Кулжабаевич – тарих фанлари доктори, профессор (Олмота, Қозоғистон)
Кененсариев Ташманбет Кененсариевич – тарих фанлари доктори, профессор (Бишкек, Қирғизистон)

Адабиётшунослик
Йўлдошев Қозоқбой Бойбекович – педагогика фанлари доктори, профессор (Гулистон, Ўзбекистон)
Тўхлиев Боқижон – филология фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)
Каримов Баҳодир Нурметович – филология фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)
Қосимов Абдуғопир Абдукаримович – филология фанлари доктори (Фарғона, Ўзбекистон)
Ҳамдамов Улуғбек Абдуваҳобович - филология фанлари доктори (Тошкент, Ўзбекистон)
Кунафин Гиниятулла Сафиуллович – филология фанлари доктори, профессор (Уфа, Россия)
Ҳусейн Бойдемир – филология фанлари доктори, профессор (Эрзрум, Туркия)
Абдуқодиров Абдусалом – филология фанлари доктори, профессор (Хўжанд, Тожикистон)
Вали Саваш Йелок – филология фанлари доктори (Анқара, Туркия)

Тилшунослик
Маҳмудов Низомиддин Мамадалиевич – филология фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)
Ҳошимов Ғанижон Мирзаахмедович – филология фанлари доктори, профессор (Андижон, Ўзбекистон)
Менглиев Бахтиёр Ражабович – филология фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)
Шаҳобиддинова Шоҳида Ҳошимовна – филология фанлари доктори, профессор (Андижон, Ўзбекистон)
Набиева Дилора Абдулҳамидовна – филология фанлари доктори, профессор (Андижон, Ўзбекистон)
Алифриенко Николай Федорович – филология фанлари доктори, профессор (Москва, Россия)
Зулпикаров Капар Зулпикарович – филология фанлари доктори, профессор (Ўш, Қирғизистон)
Бердиалиев Абдували – филология фанлари доктори, профессор (Хўжанд, Тожикистон)
Фатма Очик – филология фанлари доктори, профессор (Анқара, Туркия)

Муҳаррир:
Д.Ҳ.Қуронов, филология фанлари доктори, профессор

МУНДАРИЖА

ФАЛСАФА

М.Н.АБДУЛЛАЕВА, Г.Ғ ҒАФФАРОВА
Муҳаббат муаммоси замонавий фалсафа призмасида 5

Г.Т.МАҲМУДОВА
«Таълимдан – дунёқарашга» ижтимоий тараққиёт парадигмаси 10

А.А.ЭГАМБЕРДИЕВ
Олий таълим трансформациясини тадқиқ этишнинг айрим назарий муаммолари.....17

ТАРИХ

М.Ғ.АБДУЛЛАЕВ
«Бобурнома» асарида хронология ва метрология.....25

Г.Б.НОРМУРОДОВА
Бухоро жадидлари ижтимоий бирдамлик йўлида 33

А.МАМАЖОНОВ
Юртдошларимизнинг Европа ҳудудида фашизмга қарши курашдаги иштироки.....40

Н.Б.КОМИЛОВ
Жадид Обиджон Маҳмудовнинг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий қарашлари 47

М.Ҳ.ҒОЗИЕВ
Фарғона водийси чорвачилиги тарихидан (XIX аср охири – XX аср бошлари).....55

А.А.АБДУХАЛИМОВ
Фарғона водийси қишлоқларида умумтаълим мактаблари.....61

АДАБИЁТШУНОСЛИК

Д.Ч.ИГАМУРАТОВА
А.Некрасовнинг «Капитан Врунгелнинг саргузаштлари» қиссасидаги
«гапирувчи» номлар таржимасининг ўзига хосликлари.....68

Н.Х.ШАРАФИДДИНОВА
Ритмо-фонетик фигура компонетлари ва уларнинг ўрни 76

ТИЛШУНОСЛИК

Ш.Х.ШАҲОБИДДИНОВА, Д.Ш.ЭГАМНАЗАРОВА
Гапнинг актуал бўлиниши назарияси тадқиқининг
тарихи ҳамда асосий йўналишлари 84

Н.Д.ШИРИНОВА
Инглиз ва ўзбек тилларида предметлик ва белги-хусусият
маъноларини фарқлашда градуонимик муносабатлар 93

Г.З.РОЗИҚОВА
Маҳмуд Кошғарий «Девон»ида шахс денотатли лексемалар синонимияси.....102

Ў.Ҳ.ИСЛАМОВ
Фасоҳатли нутқни юзага келтирувчи омиллар.....109

Ш.М.СУЛТОНОВА
Диний лексика диний фразеологик бирликларнинг таркибий қисми сифатида.....115

Д.А.РУСТАМОВ
Лисоний қиймат ва мулоқот жараёни.....122

Д.Н.САТИМОВА
Инглиз ва ўзбек тилларида сленг-лексема ва унинг семик таҳлили 130

Н.Р.АМОНТУРДИЕВ
Ўзбек тилининг умумий изоҳли луғатларида этнолексемалар берилишининг қиёсий таҳлили 138

D.A.SOBIROVA
Bolalar she'riyatida alliteratsiya 145

CONTENTS

PHILOSOPHY

M.N.ABDULLAEVA, G.G.GAFFAROVA
The cognitive system of sufism in the prism of modern philosophy 5

G.T.MAKHMUDOVA
From education to worldview is a paradigm of social development 10

A.A.EGAMBERDIEV
Study of some theoretical problems of higher education transformation..... 17

HISTORY

M.G.ABDULLAEV
Chronology and metrology in «Babur-name» 25

G.B.NORMURODOVA
Jadids of Bukhara on the way to social solidarity 33

A.MAMAJONOV
Participation of our countries in the struggle against fascism in Europe 40

N.B.KOMILOV
Socio-political and economic views of jadid Obidjon Makhmudov 47

M.H.GOZIEV
Ferghana valley livestock history (End of the XIXth - beginning of the XXth) 55

A.A.ABDUKHALIMOV
Secondary schools in the villages of the fergana valley 61

LITERARY STUDIES

D.Ch.IGAMURATOVA
Peculiarities of the translation of «speaker» names in A.Nekrasov's story «The adventures of captain Vrungel» 68

N.X.SHARAFIDDINOVA
Components and the place of rhithm-phonetic figures 76

LINGUISTICS

Sh.H.SHAHOBIDDINOVA, D.Sh.EGAMNAZAROVA
History and main directions of the study of the theory of the actual division of the sentence 84

N.D.SHIRINOVA
Gradual relations in demarcation of substance and attributive meanings in english and uzbek languages..... 93

G.Z.ROZIKOVA
Synonymy of lexemes with person denotatum in «Devon» of Mahmud Koshgari 102

O'.H.ISLAMOV
The factors creating eloquent speech 109

SH.M.SULTANOVA
Religious vocabulary as an integral part of religious phraseological units 115

D.A.RUSTAMOV
Language value and the communication process 122

D.N.SATIMOVA
Slang-lexeme and its semantic analysis in uzbek and english..... 130

N.R.AMONTURDIEV
Comparative analysis of the presentation of ethnolexemes in general dictionaries of the uzbek language 138

D.A.SOBIROVA
Alliteration in children's poetry..... 145

UDK821.512.133

BOLALAR SHE'RIYATIDA ALLITERATSIYA

D.A.Sobirova

Maqolada o'zbek bolalar she'riyatida nutqiy ta'sirdorlikni, emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqarish, ifodaviylikni kuchaytirish maqsadida alliteratsiya usulidan foydalanish tadqiq etilgan. Alliteratsiya hodisasining quyidagi ko'rinishlarda uchrashi ko'rsatib berilgan: muayyan tovushni bitta so'z ichida takrorlash, so'zlar boshida bitta tovushni takrorlash, so'zlar oxirida bitta tovushni takrorlash, bitta tovushni matnning turli o'rinlarida takrorlash, o'xshash tovushlarni takrorlash, tovushlarni almashtirib qo'llash, tovushlarni qavatlash.

Kalit so'zlar: *alliteratsiya, o'zbek bolalar she'riyati, fonopoetik xususiyat, to'g'ri talaffuz, paradigma, orfoepik me'yor, fonopoetizm, geminatsiya.*

В статье рассматривается использование аллитерации на материале узбекской детской поэзии с целью реализации и усидления эмоциональной выразительности. Возникновение явления аллитерации показано в следующих формах: повторение определенного звука в одном слове, повторение одного звука в начале слов, повторение одного звука в конце слов, повторение одного звука в разных частях текста, повторение похожих звуков, чередование звуков.

Ключевые слова: *аллитерация, узбекская детская поэзия, фонопоэтическая характеристика, правильное произношение, парадигма, орфоэпическая норма, фонопоэтизм, геминизация.*

Komil inson tarbiyasi azal-azaldan milliy qadriyatlarimiz timsoli, buyuk ajdodlarimizning orzu-umidlari va hayotdagi bosh g'oyasi bo'lib kelgan. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni har jihatdan barkamol, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy muammolarini aniqlash, bu masaladagi nazariy qoidalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish yo'llari hamda vositalarini izlab topish va amaliyotga joriy etish hayotiy muammoga aylangani hech kimga sir emas.

Bugungi axborotlashuv jarayonlari ta'sirida unib-o'sayotgan bola kechagi boladan har jihatdan keskin farq qiladi. Zamonaviy ilm-fan, texnika yutuqlari bolalarimiz hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgani hech kimga sir emas. Buning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ma'qul jihati shundaki, yosh avlodga bilim sirlarini o'rganishlari uchun cheksiz imkoniyatlar eshigi ochildi. Ular ijtimoiy tarmoqlar orqali istagancha ma'lumotlarni topishi va o'z maqsadlari yo'lida foydalanishi mumkin. Yomon tomoni shundaki, internetdagi ma'lumotlarning barchasi ezgu maqsadlar yo'lida xizmat qilmaydi. Ayrim yoshlar buning ta'siriga tushib qolib, odamovi, o'z yurti, vataniga loqayd kimsalarga aylanib bormoqda. Ulkan maqsadlarni ko'zlagan O'zbekiston uchun buning aslo keragi yo'q. Bizga o'z eli, xalqi, Vatani taqdiri uchun astoydil kurasha oladigan, har qanday tashqi tazyiqlarga mardonavor dosh bera oladigan, vatanparvar, millatparvar yoshlar kerak. Buning uchun barcha kuch umumbashariy qadriyatlarga asoslangan milliy tarbiyaga yo'naltirilgan. Bu maqsadni amalga oshirishda xilma-xil vositalardan unumli foydalanilmoqda. Hammamizga ma'lumki, mazkur jarayonda, ya'ni milliy tarbiyada, millat taraqqiyotida hech bir soha badiiy adabiyotchalik muhim ahamiyat kasb eta olmaydi. Qolaversa, bolalarda ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi va bu ulkan ezgu ishda bolalar adabiyotining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlardagi obrazlarning yorqinligi, so'z ma'nolarining aniqligi, matnning ohangdorligi, ta'sirdorligi kabi xususiyatlar bola ruhiga orom, huzur bag'ishlaydi, uni o'ziga mahliyo etadi.

Bolalar adabiyotining oldida turgan vazifalardan biri yosh avlodning badiiy, ma'rifiy-estetik qarashlarini rivojlantirish ekan, demak, bu borada uning oldidagi vazifalar ulkan. Badiiy adabiyotning bu kabi beqiyos tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatish uchun keyingi davrda badiiy asar tahliliga urg'u kuchaydi. Ayniqsa, badiiy asar tilini tadqiq etish, badiiy asarlarning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, badiiy adabiyotning birinchi quroli so'zdir. Har qanday asar, u xoh kichik bo'lsin, xoh katta bo'lsin, so'z san'ati asosiga quriladi. Oddiy va jo'n, ta'siri kam, g'aliz so'zlardan, jumlalardan tashkil topgan asarning qimmati shunga yarasha bo'ladi. Shu ma'noda hozirda bolalar adabiyotining lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish, turli janrlarda yaratilgan asarlarning lisoniy jihatlarini ochib berishga intilishning kuchayganini tushunsa bo'ladi.

Shularga asoslangan holda ushbu maqolada bolalar she'riyatining lingvistik xususiyatlarini ochib berishga harakat qilindi. Xususan, bolalarga atalgan she'rlardagi tovushlararo uyg'unlik, mayinlik,

ta’sirchanlik masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Bolalar she’riyatida qo‘llangan har bir tovushning o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati bor. Ayniqsa, bolalarga atalgan she’rlarda unli va undosh tovushlardan o‘rinli foydalanish ma’lum bir maqsadni ko‘zlab amalga oshiriladi.

Unli tovushlar nutqning bir tekisda, yoqimli va mayin yuzaga chiqishini ta’minlaydi. Lekin inson nutqining tugal, tushunarli bo‘lishi uchun buning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Tabiatdagi voqea-hodisalarda, insonning ruhiy holatida mayinlik, sokinlik bilan bir qatorda shovqin-suron, qattiqlik, qat’iyat, matonat, sabr-toqat kabi belgi-xususiyatlar ham mujassam. Nutqda ularni ifodalash uchun barcha tillarda alohida undosh tovushlar tizimi shakllanadi va amalda ulardan foydalanishning turli-tuman usullari mavjud. Shulardan biri alliteratsiya hodisasi hisoblanadi.

Alliteratsiya – lotincha *ad – old, -ga + litera – harf* so‘zlaridan olingan bo‘lib, misralar yoki undagi so‘zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishi demakdir [1. B. 12]. Alliteratsiya poetik asarning ajralmas qismi sanaladi va u she’riy matnga o‘ziga xos ohang qo‘shadi hamda misralarning muayyan ritmda bo‘lishini ta’minlaydi [2. B. 18].

Alliteratsiya keng ko‘lamli va serqirra hodisa sanaladi. Ijodkorning mazkur hodisadan samarali foydalanishi individual tarzda kechishi mumkin. Masalan, O.V.Fomushkina ingliz va rus yozuvchilarining 700 ga yaqin asarlari misolida alliteratsiyaning 1500 dan ortiq ko‘rinishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tadi [3. B. 19].

N.V.Lipatovaning fikricha, alliteratsiya tarkibiga sodda va to‘liq; ifodalanishiga ko‘ra ot asosli, sifat va ravish asosli, fe’l asosli; olmosh asosli va aralash ko‘rinishda; joylashuviga ko‘ra vertikal, gorizontal, gorizontal-vertikal kabi turlarga bo‘linib ketadi [4. B. 80].

O‘zbek bolalar she’riyatida ham she’rning mazmun-mohiyatini tugal yetkazib berish, nutq imkoniyatlarining cheksiz ekanligini ko‘rsatish, ifodaviylikni ta’minlash, ta’sirchanlikni kuchaytirish maqsadida undosh tovushlarning ketma-ket kelishi, qavatlanishi, takrorlanishi kabi nutqiy hodisalardan unumli foydalanib kelinmoqda. O‘rni kelganda ta’kidlash joizki, bolalar she’riyatining kattalar she’riyatidan farqli xususiyatlari ko‘p. Artikulyatsion-akustik jihatdan kattalarda nutq tovushlarini talaffuz qilishga nutq organlari allaqachon moslashgan, har bir tovush bo‘yicha muayyan malaka hosil qilingan bo‘ladi. Bolalarda esa bu holat endigina shakllanib, taraqqiy eta boshlaydi. Ayrim tovushlarni, xususan, **r, g‘, k, f, ng** kabi tovushlarni talaffuz etish ko‘nikmasi qiyin kechadi. Ko‘pincha ular nutqida r→y, l, k→t, s→sh, f→p, g→d, g‘→g, z→j, ng→n tovush almashinishlari ro‘y beradi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, go‘dakning nutqi **b, d** kabi undosh tovushlarni talaffuz etish bilan boshlanadi, sekin-asta ularga *ba, da, pa, ta, tu* ko‘rinishida unli tovushlarni biriktirish boshlanadi. Dastavval ular ma’nosiz tovushlar birikmasi tarzida bo‘ladi, lekin davr o‘tishi bilan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘z shakliga aylanib boradi. Masalan:

Deydi ukam Boyxo‘roz:
*– **Atina, patina, tatuna.***
Tushida ham g‘o‘ldirar:
***At-tina, pat-tina, tat-tuv-na**...* [5. B. 35].
Bu yil kenja nabiramiz,
Maktabdayin qutlug‘ joyga
Qadam bosdi.
«Karra», «durra» so‘zlarini,
«Kayya», «duyya»,– deydi darhol
U g‘oz turib [6. B. 193].

Ijodkorlar deyarli barcha bolalarning nutqida bu kabi lingvopsixologik jarayonlarning muntazam ravishda sodir bo‘lishini yaxshi biladilar va o‘z asarlarida uni fonopoetik vosita darajasiga olib chiqishga urinadilar. Kichkinagina detal orqali bolalar nutqida uchraydigan kamchiliklarni tuzatish, ularning nutqini rivojlantirish, bola miyasida sodir bo‘layotgan psixologik holatni ko‘rsatish, bola bilan jamiyat o‘rtasidagi kommunikatsiyaning shakllanishi hamda takomillashuvini ifodalash maqsadini ko‘zlaydilar. Mazkur maqsadning sezilarli qismi undosh tovushlar bilan bog‘liq alliteratsiyali matnlar zimmasiga yuklatiladi. O‘zbek bolalar she’riyatida alliteratsiya hodisasi quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi:

1. Muayyan tovushni bitta so‘z ichida takrorlash. Alliteratsiyaning bu turi bolalar nutqidagi qusurlarni qayd etish va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatishga xizmat qilganligi bois, aksariyat bolalar ijodkorlari unga qayta-qayta murojaat qilishgan, turkum she’rlar bitishgan. Masalan, Kavsar Turdiyevaning «Harflar she’r yozishgani haqida» nomli she’riy turkumida deyarli barcha undosh tovushlarning bir so‘z ichida takrorlanib kelishiga alohida ahamiyat qaratilgan. Misollar:

– **d:** Do‘xtir yoz**di** ko‘p **d**ori, Va yana **d**armon**d**ori;
– **j:** Bu **j**a**jj**i ken**j**abotir, Pan**j**ada ishlayotir;
– **l:** ***L**oyxo‘rak soyda yurar,*
***L**aqqa bal**i**qni ko‘**r**ar,*
***L**a**ll**ayib qarar **l**aqqa,*
*Va to‘xtab qo**l**ar taqqa;*
– n: ***N**ana-**n**ay-**n**ay, **N**a-**n**a-**n**ay,*
*Qo‘shiq yangraydi ti**n**may.*
*Qo‘shiq**n**i**n**g so‘zin bilmay,*
*Qolsang aytgi**nn**a-**n**a-**n**ay;*

–**t:** ***T**og‘da **t**o‘x**t**adi **t**rak**t**or, **T**rak**t**or **t**irillar **t**ir-**t**ir;*
–**sh: Sh**o**sh**ma-**sh**o**sh**ar Bizning Ba**sh**ar**,**
Qayga **sh**o**sh**ar, **Sh**o**sh**ma-**sh**o**sh**ar*?* [7. Б. 99]

–q: «**Q**» der yozamiz bundoq: «**q**is**q**ichba**q**a, **q**ar**q**uno**q**».

Qarg‘a **q**ag‘illar **q**or-**q**or, **q**amishzorda **q**ora **q**or [7. B. 163].

Ko‘zi kuyib der Baqa:
– Va**q**, va**q**-tim chato**q** [8. B. 158].
Ochilibdi **q**iz**q**aldo**q**,
Chi**q**aylik huv-v xonaga! [9. B. 7]
Chir**q**illadi chumchu**q**cha,
Ola tirno**q** tumshu**q**cha [7. B. 43].

Bolalar she’riyatida undosh tovushlarning bu kabi fonopoetik xususiyatlaridan unumli foydalanish so‘zlarning bolalar ongida muhrlanishiga, ularga orfoepik me’yorlarni singdirishga va nutq jarayonida so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashga xizmat qiladi. Bola uchun ba’zan bir qatorlik she’r bir nechta grammatik qoidalarning o‘rnini bosishi mumkin. Masalan: «Bulbul»ni «G‘ulg‘ul» dema, «B» o‘rnin «g‘» olmasin. «Z» o‘rnida «r» yozma, «Ko‘z» «ko‘r» bo‘lib qolmasin [10. B. 62]. Bola uchun ta’sirchan, uning qalbiga yetib boradigan misralar yozilgan. Shoir «l», «z», «r» undosh tovushlarining bitta so‘z ichida kelishidan o‘rinli foydalangan.

2. So‘zlar boshida bitta tovushni takrorlash. O‘zbek bolalar she’riyatida bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, so‘zlarga yashiringan turfa emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikni muayyan nutqiy vaziyatlarda yuzaga chiqishini ko‘rsatish maqsadida alliteratsiyaning mazkur turidan unumli foydalanilgan va o‘zbek tilining fonologik sathida amalda bo‘lgan barcha undosh tovushlarning so‘z boshida kelish holati nazardan qochirilmagan. Masalan:

– **b:** *Birdan «B» boshlar so‘zin.*
Baxtiyor tutib o‘zin:
«Bo‘ri, bo‘g‘irsoqqa boq,
Bo‘rsildoqdir bo‘g‘irsoq» [7 .B. 132 – 133].

– **d:** ***D****ehqon bobo der:* ***d****emak,*
D*alamizga* ***d****am kerak;*
D *harfini birga ayting iltimos:*
D d d *qaysi so‘z****d****a bor?*
– ***D****elfin,* ***d****ono,* ***d****orivor,*
D*engiz,* ***d****o‘stlik va* ***d****o‘xtir,*
D *harf yomon****d****a yo‘qdir* [7. B. 163].

– **g:** ***G****avhar,* ***G****ulnora* ***G****ulnoz,*
G*ilos yeyishdi bir oz.*
G*ilamga tushdi* ***g****ilos,*
G*ilos ezildi bir oz.*
G*ulnora,* ***G****ulnoz,* ***G****avhar,*
Qachon ***g****ilamni yuvar?* [7 . B. 172–173].

– **j:** *Elim aytgan o‘langa,*
Jo‘r bo‘laman, jo‘raman;
Jimirlatar jismingni,
Bu «Andijon polkasi» [10. B. 17].

– **sh:** *Qay biriga qara****sh****ni,*
Bilmay, ***sh****o****sh****ib qolding-a,*
Sh*aftolini aytolmay,*
*«****Sh****ap-****sh****ap-****sh****ap» deb tolding-a?*» [10. B. 7].
– **q:** ***Q****ahratonning* ***q****ahridan,* ***q****o‘****q****ib* ***q****otgan teraklar;* [10. B. 19];
– **y:** ***Y****akka-****y****u* ***y****olg‘iz kelib,* ***Y****uraklarni ezmagin.*
Y*urtimizni laylakjon,* ***Y****ashnab,* ***yay****rab tut makon* [11. B. 22].

Ba’zi bir she’rlar mahorat darajasiga ko‘tarilgan. Iste’dodli shoir Ma’mur Qahhor to‘rt qatorlik 26 ta so‘zdan iborat bo‘lgan to‘rtligida 25 ta so‘zni «q» undoshi bilan boshlagan va alliteratsiyaning noyob ko‘rinishini hosil qilgan. She’rda qo‘llangan 180 ta tovushning 36 tasini «q» tovushi tashkil etadi. Bu umumiy ishtirok etuvchi tovushlarning 20 foizini tashkil qiladi. She’r orqali undosh tovushlarning yuksak darajadagi fonopoetik xususiyatlarini ko‘rsatib berishdan tashqari o‘zbek tilining boy leksik zaxirasi, uslubiy jihatdan imkoniyatlarining kengligi ham ochib berilgan.

Q*ir* ***q****o‘ynida* ***q****izalo****q****,*
Q*iz* ***q****o‘ynida* ***q****izqaldoq.*
Q*ir* ***q****izidir* ***q****iz****q****aldo****q****,*
Q*ip-****q****izildir* ***q****iz****q****aldo****q****.*
Q*izalo****q*** *–* ***q****uyosh* ***q****izi,*
Q*arang, yuzi* ***q****irmizi.*
Q*izalo****q*** ***q****izg‘aldo****q****dek,*
Q*izg‘aldo****qq****izalo****q****dek.*
Q*izalog‘-u* ***q****izg‘aldo****q***
Q*ondosh,* ***q****ilsak* ***q****is****q****aro****q*** [12. B. 58].

3. Har bir misra oxirida bitta tovushni takrorlash: *Uzoqmasmi Qoraqami****sh****? Borganmisan, qanaqami****sh****? – Yaqin ekan Qoraqami****sh****. Borib dedim: «Qani qami****sh****?»* [5. B. 233].

4. Bitta tovushni matnning turli o‘rinlarida takrorlash. Ma’lumki, nutq jarayoni o‘ta murakkab hodisa sanaladi. Garchi tilshunoslikda nutqning tovushlar tartibi – qat’iy ketma-ketlik qoidasi asosiga qurilishi allaqachon o‘z isbotini topgan bo‘lsa-da, so‘zlar tarkibida bir-biriga o‘xshash va noo‘xshash tovushlarning, ayniqsa, undosh tovushlarning simfoniyasi (jo‘rovozligi) masalasi hamon muammoligicha qolib kelmoqda. Konsonant tovushlarning so‘z ichidagi o‘rnini aniqlash masalasi lingvistikaning markaziy masalalaridan birini tashkil etadi. Undosh tovushlarning so‘z ichida tovlanishi chegarasiz ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Mustaqillik davri o‘zbek bolalar she’riyatida buning isbotini kuzatish mumkin. Ijodkorlar bitta tovushni matnning turli o‘rinlarida takrorlashga alohida e’tibor qaratishgan. Masalan: «ch» tovushini so‘zning boshida, so‘zning o‘rtasida qo‘llash orqali o‘ziga xos poetik obraz yaratilgan:

*– Mitti-mitti **j**o‘**j**alar,*
*Ch**i**roylisiz mun**ch**alar.*
*Ch**i**p-ch**i**p, ch**i**p-ch**i**p etasiz,*
*Ham kunduz, ham ke**ch**alar* [10. B. 28].

Xuddi shunday holatni **«n»** undoshi misolida ham ko‘rish mumkin: *Zi**n**do**n**mi... Qizil qo**n**mi, Yo to‘**n**karilga**n** mi**n**or? Shu**n**da**n** pushti, Alvo**n**mi, Yo bag‘ri qo**n**mi A**N**OR?!* [14. B. 10]

5. O‘xshash tovushlarni takrorlash. Ma’lumki, tilshunoslikda so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tilning eng kichik tovush birligiga fonema deyiladi [15. Б. 37]. Fonemalar o‘xshash va noo‘xshash belgilariga ko‘ratil sistemasida alohida paradigmalarga birlashadi: lab undoshlari, til undoshlari; jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar kabi. Nutq jarayoni vaqt jihatidan tez va qamrov jihatidan tor bo‘lgani bois inson har vaqt bitta paradigmaga oid, bir-biriga o‘xshash tovushlardan unumli foydalanishga intiladi. Bunday holat bolalar she’riyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

– **d-t:** *Asli**d**a-chi, asl **d**o‘s**t**, Hech ajralmas mag‘izpo‘s**t*** [14. B. 4].

– **z-s:** *O**s**mon oli**s**, o**s**mon keng, Har biringiz bir **z**argar. Oqshomlari boshimdan, **S**ochayap**s**iz kumush, **z**ar* [16. B. 9].

– **m-n:** *Ishlaydi bil**m**ay tinim, **M**eh**n**atda ko‘p u**n**u**m*** [17.B. 23]. *Deraza**m**da**n** oy boqdi, Yari**m** tu**n**da xo**n**a**m**ga. Yuzlari o‘xshab ketdi, **M**ehri **n**urli o**n**a**m**ga* [17.B. 194].

– p-f: *G‘o‘daymanman, si**p**oman. Ko‘p dardlarga shi**f**oman* [13. B. 18].

–**ch-j:** *Hovli bo‘ylab pildirar, Ikki yuzi naq lola. **J**ilg‘dayin **ch**uldirar, Tinmay bi**j**ildoq bol*a [18. B. 2]. *Qaynab oqar buloq**ch**a, Go‘yo **j**a**jj**i yurak**ch**a* [11.B. 16].

– **g-k:** *Bobom e**kk**an olmadan, To‘yib-to‘yib ye**g**anman. Shuning uchun men dildan, Nihol e**k**ay, de**g**anman* [13. B. 18].

– **q-g‘:** *Cha**q**mo**q** cha**q**di cha**q**indan, Yom**g**‘ir yo**g**‘di yo**g**‘indan. Choparlardek chopdik biz,Yopinchi**g**‘lar yopdik biz* [7. B. 7]. *Ma**q**tancho**q** – pistapo‘cho**q**, Ma**q**tanib deydi shu chog‘: Men o‘zim, bitta o‘zim, Chin so‘zim, chinni so‘zim* [7. B. 13].*Qiz**g**‘anchi**q**, **q**iz**g**‘anchi**q**, chi**q**, chi**q**. O‘yincho**q**laringni yi**g**‘! Olgin **q**alam, ayi**q**ni, Qo‘g‘ircho**q**ni, **q**ayi**q**ni* [7. B. 92].

– **q-k:** *Qo‘shtramvay kelyapti, Quvnoq qo‘shiq aytyapti: – Ta**q**a-tu**q**-ta**q**...– Ta**k**a-tu**k**-ta**k**... Oldindagi – Hasanboy, Ortdagisi – Husanboy. To‘silsa goh yo‘lakcha, Tovushlari bo‘lakcha: – Jing-jing-jing! – Ting-ting-ting!* [5.B.28]

– **sh-s:** *Gulzorimda bolari, Gullar bilan qol, ari. Mana senga gulko**s**a, **sh**arbat **sh**imir, to‘y ro**s**a* [13.B. 10]. *G‘oz karnaychi bo‘lmasin, O‘rdak surnay chalmasin. Karnaychi **Sh**okir tog‘am, Yana i**shs**iz qolma**s**in* [19. B. 5].*O‘**s**ib-un**s**am, kuchga to‘l**s**am, Men-chi mu**sh**uk bo‘laman. Kalamu**sh**ning – G‘alami**s**ning qirib dodin beraman* [19. B. 6].

6. Tovushlarni almashtirib qo‘llash: – *Qani, ayt-chi, **R**amon, **R**avshan, O‘tinlar**r**ni a**rr**aladi* [20. B. 22]. – ***Y**axmon, **Y**avshan bi**y**galashib, O‘ti**ll**ayni a**ll**aladi. «Arra», «karra» so‘zlarini, Burro aytar ukam Botir «Sh» va «Ch» harflariga, Tili biroz kelmayotir. – **Ch**inoraning **ch**innisi bor, **ch**innisida **sh**innisi bor. – **S**inoraning **s**innisi bor, **s**innisida **s**innisi bor* [20. B.56]. *Asli, ismim **S**illiqqurt, Bo‘lib qoldim **Sh**illiqqurt. Qilishibdi meni otsiz, FHDYO – savodsiz* [21. B. 31].

7. Tovushlarni qavatlash: Bolalar dunyosi o‘zining soddaligi, rang-barangligi, qiziq-qiziq hodisalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shunga mos ravishda ularning nutqi ham o‘zgacha ohangga ega bo‘ladi. Bolalar nutqi ularning jajji qalbida tug‘yonga kelgan yalinish, yolvorish, so‘rash, iltijo, ajablanish, quvnoqlik, baxtiyorlik, qo‘rquv va shu kabi his-tuyg‘ularni ifodalashga yo‘naltiriladi. Bolalar o‘zi bilmagan holda nutqining tinglovchilarga, asosan, ota-onasi, oila a’zolari, qavm-qarindoshlari, tengdoshlariga jozibali, serjilo, ta’sirchan bo‘lib yetib borishini ta’minlaydi. Ko‘pincha bu jarayonda tovushlarni qavatlash muhim o‘rin tutadi. Masalan: maza, juda so‘zlari aslida bitta «z» va «d» bilan aytiladi va yoziladi, ammo ijodkorlar kichkintoylar nutqidagi xursandchilik, a’lo kayfiyat bilan bog‘liq fonopoetizmni ifodalash maqsadida geminatsiya usulidan ustalik bilan foydalanadilar.

Masalan: *Momoqaymoq momoginam, Qishdan chiqding omonginam. Momolarim somsa qildi, Yeган borki ma**zz**a qildi* [22. B.31]. *Sovun shunday mo‘jiza, Ko‘pirtiraman ma**zz**a* [16. B. 21]. *Ha, ikki xil ko‘z bilan, Yashash qiyin, oshnalar. Bo‘ling ju**d-d**a ehtiyot!* [8. B. 5]

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda ketma-ket kelgan aynan bir xil tipdagi undosh tovushlarga geminatsiya hodisasi deb ta’rif beriladi [1.B. 30]. Shuningdek, mazkur hodisa «undoshlarni qavatlash», «ikkilangan undosh», «qo‘sh undoshlik», «geminatsiya», «ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi» kabi atamalar bilan ham tadqiqqa tortilgan.

Jumladan, N.K.Dmitriyevning fikricha, «geminant undoshlar turkiy tillar fonetikasi uchun xarakterli emas, ular assimilyatsiya natijasida o‘zak morfemalar bilan affikslar chegarasida uchraydi» [23. Б. 261]. A.G‘ulomov qo‘shaloq undoshlar dastlab ekspressivlikni ifodalash maqsadida qo‘llanganligini, keyinchalik til taraqqiyoti natijasida uning oddiy holatga aylanganini ta’kidlaydi [24. Б. 22 – 24]. F.Abdullayev «til taraqqiyotining ma’lum bir davrlarida so‘zning birinchi ochiq bo‘g‘inini mustahkamlash maqsadida geminat undoshlar paydo bo‘lgan» degan fikrni ilgari suradi [25. B. 133 – 134].

Ko‘rsatilgan adabiyotlarda geminatsiyaning

muayyan o‘rinlarda kelishi ta’kidlangan. Bolalar nutqi his-tuyg‘ularga, emotsiyalarga boyligi bois tovushlarning qavatlanishi so‘zning istalgan joyida ro‘y berishi mumkin ekan. Masalan: so‘z boshida: – ***Ir-r****... Bir-r uyga kiray, – der Jilpanglab To‘rtko‘z* [8. B. 151]; so‘z o‘rtasida: *Qarg‘a dedi:* – ***Qar-r...Qar-r-shi*** *bo‘lmasang agar, Kengaytirib* ***ber-r-rayin,*** *uyingni, jigar* [8. B.159]; so‘z oxirida: ***Qur-r-r*** *qaysi* ***qurg‘ur-r-r*** *olgan bo‘lsa, chiqsin o‘rtaga* [8. B.151].

O‘zbek bolalar shoirlari vaziyatni yorqinlashtirish, tasvirlarni bolaga obrazli qilib ko‘rsatish, uni qiziqtirish, tabiatga mehr uyg‘otish maqsadida jonivorlar tilidan undoshlarning qavatlanib kelishidan unumli foydalanganlar. Масалан: *Ichi yorug‘ tomidan, O‘tmaydi chakka. Havas qildi Chigirtka:* – ***Chir-r-roylik-ku****, ja!* [8. B. 158].

Aytilganlardan anglashiladiki, bolalar adabiyotining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish, ularda qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish yosh avlodga badiiy adabiyot sirlarini tushuntirishda, ulardagi badiiy-estetik didni tarbiyalashda va shu orqali hayot go‘zalliklarini his qildirishda, pirovard maqsadda esa qalbi pok, teran fikrlay oladigan, olam go‘zalliklaridan bahra ola biladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etar ekan.

Jumladan, bolalar she’riyatida ishlatilgan alliteratsiya hodisasining xususiyatlarini tugal tadqiq etish sohaning bizga hali ma’lum bo‘lmagan tarbiyaviy, pedagogik-psixologik, lingvistik qirralarini ochib berishga xizmat qilishi mumkin. Qolaversa, bu orqali bolalar nutqining o‘ziga xos bo‘lgan rangin jihatlarini ko‘rsatish, namoyon qilish imkoniyatlari yuzaga chiqariladi. Shu bilan birga bolalar nutqida uchrovchi qiyinchiliklarni bartaraf etish, **d, t, z, s, g, k, l, b, m** kabi ayrim so‘zlarda bir-biri bilan almashinib turuvchi tovushlarning talaffuzidagi o‘xshash va farqli jihatlarni bolalarga chuqur o‘rgatishga yaqindan yordam berish imkoniyatlari yaratiladi.

Bolalar dunyosida qushlar va hayvonlar, ularning ovozlariga taqlid qilish holati hamisha e’tiborda turgan. Bolalar shoirlari buni juda yaxshi bilgan holda o‘z asarlarida qushlar va hayvonlar ovozidan o‘rinli foydalanganlar. Ularning she’riy asarlarida tovushlarni qavatlash, ketma-ket qo‘llash, almashtirish kabi usullar juda chiroyli tarzda ifodalangan. Bu orqali bolalar nutqida uchrovchi kamchiliklarni bartaraf etishga yordamlashish, bolalarda o‘z nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish, tovushlarni solishtirish, o‘zlari uchun zaruriy xulosalar chiqarish maqsadini ko‘zlaganlar. Zero, bizning ham maqsadimiz shu: har jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Адабиётлар:

1. *Ҳожиев А.* Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.

2. *Чайка Н.Н*. Аллитерационный стих в немецкой поэзии XIX веке: Лингвопоэтической анализ текстов на материале Р.Вегнера и В.Иордана: Автореф. дисс… докт. филол. наук. – Москва, 2004. – 46 с.

3. *Фомушкина О.В.* Аллитерация как композиционный прием в поэтическом тексте: на материале английского и русского языков: Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Москва, 2013. – 19 с.

4. *Липатова Н.В*. Повторы на звуковом (фонетическом) уровне в эрзянском и немецком языках: Типологический аспект исследования. Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Саранск: 2004. – 24 с.

5. *Obidjon, Anvar*. G‘alati maktublar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. –128 b.

6. *Adashboyev T*. Osmon qaydan boshlanar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 124 b.

7. *Turdiyeva K*. Saylanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 2007. – 515 b.

8. *Obidjon, Anvar*. Kichkintoylar quvonchi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 336 b.

9. *Abduazimova U*. O‘zbekcha tush ko‘raman. –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2012. – 86 b.

10. *Rajab, Dilshod.* Baxshi bola-yaxshi bola. – Toshkent: O'zbekiston nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2016. –144 b.

11. *O‘tayev Q.* Atlas kiygan kapalak. –Toshkent: Akademnashr, 2018. – 64 b.

12. *Qahhor, Ma’mur*. Oq muzqaymoq va muzqaymoq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 62 b.

13. *Obidjon, Anvar*. Kulcha non. Bolalar uchun she’rlar. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 32 b.

14. *Tog‘a, Yahyo*. Qarchig‘ayning jiyani. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 64 b.

15. *Нурмонов А.* Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси / Танланган асарлар. III жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 376 б.

16. *Hasanova Z*. Salom maktab. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 32 b.

17. *Hasanova Z.* Ko‘zmunchoq. – Toshkent: Noshir, 2016. – 42 b.

18. *Mirpo‘lat, Mirzo.* Bijildoq bola. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016. – 12 b.

19. *Adashboyev T*. Osmon qaydan boshlanar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 124 b.

20. *Adashboyev A.* Osmondagi darvoza. – Toshkent: Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. – 208 b.

21. *Komilov X.* Mazali kitob. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014. – 48 b.
22. *Abdurahmon,* Odil. Belanchak. – Toshkent: Sharq, 2018. – 48 b.
23. *Дмитриев Н.К*. Двойние согласние в тюркских языках // Сб. науч. тр.: Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. 1. Фонетика. – Москва: Изд-во Академии наук СССР, 1955. – 320 с.
24. *Гуломов А*. Проблеми исторического словообразования узбекского языка. Рукопис докторской диссертации. – Ташкент, 1958. – 168 с.
25. *Абдуллаев Ф.* Фонетика Хорезмских говоров. – Ташкент: Фан, 1967. – 340 с.

ALLITERATION IN CHILDREN'S POETRY

D.A.Sobirova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. 2020. 5(49). 145 – 151.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: *alliteration, Uzbek children's poetry, phonopoetic feature, correct pronunciation, paradigm, orthoepic norm, phonopoetism, gemination.*

Sequence, overlap, repetition of consonant sounds are effectively used in Uzbek children's poetry, in order to fully convey the essence of the poem to children, to show the infinite possibilities of speech, to provide expressiveness, to increase the effectiveness of speech phenomena.

A significant part of this goal is assigned to alliterative texts related to consonant sounds. The phenomenon of alliteration in Uzbek children's poetry occurs in the following forms:

1. Repeating a certain sound in a single word. Since this type of alliteration served to record defects in children's speech and teach them to pronounce them correctly, most children's creators referred to it over and over again, ending a series of poems. For example, in Kavsar Turdieva's series of poems «On the writing of letters in poetry» special attention is paid to the fact that almost all consonant sounds are repeated in one word.

2. Repeating a single sound at the beginning of words. In Uzbek children's poetry, this type of alliteration is effectively used to increase children's vocabulary, to teach them to pronounce correctly, to show that the hidden emotional-expressive coloring of words occurs in certain speech situations. For example:–**b;**–**d;**–**g;**–**j;**–**sh;**–**q;** –**y**consonant sounds.

3. Repeating one sound at the end of each verse: Is it long Karakamysh? How did you get there? «It's close, Karakamysh.» I went and said, «Where is the reed?» [3. B. 233]

4. Repeating the same sound in different parts of the text. It is known that the speech process is a very complex phenomenon. The problem of determining the position of consonant sounds in a word is one of the central issues of linguistics. The flashing of consonant sounds within a word is manifested in boundless appearances. The proof of this can be seen in Uzbek children's poetry. The creators paid special attention to repeating a single sound in different parts of the text.

5. Repeating similar sounds. Phonemes combine into separate paradigms in the language system according to similar and dissimilar characters. Because the speech process is fast in time and narrow in scope, one always strives to make effective use of similar sounds belonging to the same paradigm. This situation is evident in children's poetry and has the following manifestations: –**d-t;** –**z-s;**– **m-n;**– **p-f;**–**ch-j;**–**g-k;** –**q-g';** – **q-k;** –**sh-s.**

6. Alternate sounds. In children's poetry, the method of alternating sounds is also used effectively. For example: - Actually, my name is Silliqqurt, I became Shillikqurt [21. B. 31].

7. Layering of sounds. Because children's speech is rich in emotions, the overlap of sounds can occur anywhere in the word. Uzbek children's poets have effectively used the language of animals in order to brighten the situation, to make the images figurative for the child, to interest him, to arouse love for nature.

References:

1. Hojiev, A. (2002) *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'at*i [Explanatory dictionary of Linguistic Terms]. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Chajka, N.N. (2004) Alliteracionnyj stih v nemecskoj poezii XIX veke: Lingvopoeticheskoj analiz tekstov na materiale R.Vegnera i V.Iordana: [Alliterative Verse in non-German Poetry of the Twentieth Century: Linguo-Poetic Analysis of Texts Based on the Material of R. Wegner and V. Jordan]. Abstract of the dissertation of doctor of philological sciences. Moscow.

3. Fomushkina, O.V. (2013) Alliteraciya kak kompozicionnyj priem v poeticheskom tekste: na materiale anglijskogo i russkogo yazykov [Alliteration as a compositional technique in a poetic text: on the material of English and Russian languages]. Abstract of the dissertation of candidate of philological sciences. Moscow.

4. Lipatova, N.V. (2004) Povtory na zvukovom (foneticheskom) urovne v erzyanskom i nemeckom yazykah: Tipologicheskij aspekt issledovaniya [Repetitions at the Sound (Phonetic) Level in Erzya and German: Typological Aspect of Research]. Abstract of the dissertation of candidate of philological sciences. Saransk.

5. Obidjon, A. (2017) *G‘alati maktublar* [Strange letters]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

6. Adashboev, T. (2017) *Osmon qaydan boshlanar* [Where the heaven begins]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

7. Turdieva, K. (2007) *Saylanma* [Selection]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

8. Obidjon, A. (2019) *Kichkintoylar quvonchi* [Joy of small children]. Tashkent: O‘zbekiston.

9. Abduazimova, U. (2012) *O‘zbekcha tush ko’raman* [I have a dream in Uzbek]. Tashkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

10. Rajab, D. (2016) *Baxshi bola – yaxshi bola* [A bakshi boy is a good boy]. Tashkent: O‘zbekiston nashriyot – matbaa ijodiy uyi.

11. *O‘tayev Q.* (2018) *Atlas kiygan kapalak* [Butterfly in Atlas]. Tashkent: Akademnashr.

12. Qahhor,M. (2018) *Oq muzqaymoq va muzqaymoq* [White ice cream and ice cream]. Tashkent: O‘zbekiston.

13. *Obidjon, A*. (2016) *Kulcha non. Bolalar uchun she’rlar* [A small flat cake]. Tashkent: Navro‘z.

14. Tog‘a, Ya. (2019) *Qarchig‘ayning jiyani* [Nephew of the vulture]. Tashkent: O‘zbekiston.

15. Nurmonov A. (2012) O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi [Phonology and morphology of the Uzbek language]. In: Tanlangan asarlar [Selected works]. 2-volumes. Tashkent: Akademnashr.

16. Hasanova, Z. (2016) *Salom maktab* [Hello school]. Tashkent: Navro‘z.

17. Hasanova, Z. (2016) *Ko‘zmunchoq* [Bead]. Tashkent: Noshir.

18. Mirpo‘lat, Mirzo. (2016) *Bijildoq bola* [A talkative boy]. Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.

19. Adashboev, T. (2017) *Osmon qaydan boshlanar* [Where the heaven begins]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

20. Adashboev, T. (2018) *Osmondagi darvoza* [The gate in heaven]. Tashkent: Sharq.

21. Komilov, X.. (2014) *Mazali kitob* [Delicious book]. Tashkent: Turon zamin ziyo.

22. Abdurahmon, Odil. (2018) *Belanchak* [Swing]. Tashkent: Sharq.

23. Dmitriyev, N.K. (1995) *Dvojnie soglasnie v tyurkskih yazykah* [Double consonants in the Turkic languages]. In: Issledovaniya po sravnitel’noj grammatike tyurkskih yazykov. I. Fonetika [Research on the comparative grammar of the Turkic languages. I. Phonetics]. Sbornik nauchnyh trudov [Collection of scientific papers]. Moscow: Izhdatel`stvo Akademii nauk SSSR.

24. Gulomov, A. (1958) Problemy istoricheskogo slovoobrazovaniya uzbekskogo yazyka [Problems of historical word formation of the Uzbek language]. Rukopis doktorskoj dissertacii [Doctoral dissertation manuscript].Tashkent.

25. Abdullaev, F. (1967) *Fonetika Horezmskih govorov* [Phonetics of Kharezm dialects]. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma’lumot:

SOBIROVA Dilafruz Abdulhay qizi – Andijon davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi. E-mail: dilafruz.sobirova.92@mail.ru